

1 – MASHG'ULOT

1-TOPSHIRIQ

Sinf: 5-6 sinf

Topshiriq nomi: Telefonlar quvvati

Mazmun sohasi: Sonning qismi, kasr tushunchasi, natural sonlar ustida amallar, qoldiqli bo'lish

Telefonlar quvvati

Topshiriq 1/3

O'ng tomondagi "Telefonlar quvvati" matnini o'qing.

Samad uy telefonining quvvatini uchdan ikki qismi qolganini ko'rdi (1-rasm).



Odatdagidek ishlatilganda, uning uy telefoni quvvati yana qancha vaqtga yetadi?

Javobni son ko'rinishida yozing.

soat

Telefonlar quvvati

Samad uy va uyali telefondan foydalanadi. Uy telefoni quvvati 120 soatga, uyali telefoniniki esa - 48 soatga yetadi. Malikaning uyali telefonining quvvati ham 48 soatga yetadi.



Telefonlar quvvati

Topshiriq 2/3

O'ng tomondagi "Telefonlar quvvati" matnidano foydalaning. To'g'ri javobni tanlang va izohlang.

Samad va Malika uyali telefonlarining quvvatini solishtirishdi. Samadning telefoni quvvatining - $\frac{1}{3}$ qismi, Malikanikining esa - $\frac{1}{5}$ qismi sarflangan bo'lib chiqdi.

Malika «Mening telefonim quvvati sening telefoningnikidan ko'p qolgan», - deb aytdi. Malika haqmi?

- a) U haq
- b) U nohaq

Javobni izohlang.

Telefonlar quvvati

Samad uy va uyali telefondan foydalanadi. Uy telefoni quvvati 120 soatga, uyali telefoniniki esa - 48 soatga yetadi. Malikaning uyali telefonining quvvati ham 48 soatga yetadi.





Telefonlar quvvati

Topshiriq 3/3

O'ng tomondagi "Telefonlar quvvati" matnidan foydalaning. Javobni sonlar ko'rinishida yozing.

Oxirgi vaqtlarda Samad uyali telefonning quvvati 5 marta tezroq kamayayotganini payqadi.

Agar avval uning uyali telefoni quvvati 48 soatga yetgan bo'lsa, endi qanchaga yetadi? Javobni soat va minutlarda ifodalang.

Javobni soat va minutlarda yozing.

soat

minut

Telefonlar quvvati

Samad uy va uyali telefondan foydalanadi.
Uy telefoni quvvati 120 soatga, uyali telefoniniki esa - 48 soatga yetadi. Malikaning uyali telefonining quvvati ham 48 soatga yetadi.

